



Modern methods and means of teaching spiritual and moral values to girls based on the spiritual heritage of the Temurians

Dilafruz KURBANOVA¹

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

15 July 2024

Keywords:

historical memory,
timurid princesses,
student-girls moral quality,
moral character,
student-girls,
spirituality.

ABSTRACT

The article is devoted to the study of methods and tools used in teaching female students to master the spiritual heritage of Temur and the Timurid queens. The authors consider this heritage as a moral and ethical value, focusing on the importance of integrating the historical and cultural context into the educational process.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp265-270>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Talaba-qizlarga temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'rgatishning zamonaviy metod va vositalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tarixiy xotira,
temuriy malikalar,
talaba-qizlar axloqiy sifat,
axloqiy qadriyat,
talaba-qizlar,
ma'naviyat.

Ushbu maqolada talaba-qizlarga Temur va temuriylar sulolasiga mansub malikalarning ma'naviy merosini ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida o'rgatishda qo'llaniladigan metod va vositalar texnikasi yoritilgan.

¹ Assistant, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute.

Современные методы и средства обучения духовно-нравственным ценностям девушек на основе духовного наследия цариц темуридов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

историческая память,
тимуридские принцессы,
моральные качества
студенток,
нравственный облик,
студентки,
духовность.

Статья посвящена изучению методов и инструментов, применяемых при обучении студенток освоению духовного наследия Темура и цариц темуридов. Авторы рассматривают это наследие как морально-нравственную ценность, акцентируя внимание на важности интеграции исторического и культурного контекста в образовательный процесс.

KIRISH

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmasligi jahon miqyosida ta'limni rivojlantirishni birinchi o'rindagi vazifa sifatida belgilab qo'ymoqda. Oliy ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirish mamlakatning kelgusi ravnaqida qo'lga kiritiladigan yutuqlar bilan bevosita chambarchas bog'liq ekanligini davr isbotlab turibdi. Oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda o'z kasbini mukammal o'rganishi bilan birga yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida rivojlantirish nihoyatda muhimdir.

Mamlakatimizda yoshlarni, shu jumladan, talaba-qizlarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Talaba-qizlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini takomillashtirishda tarixiy merosimizdan, aniqrog'i temuriy malikalarning ma'naviy merosidan foydalanishga ehtiyoj sezilmoqda. Har qanday ma'naviy ehtiyoj ta'minlanmasa, fojeaga olib kelishi muqarrar.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni [1], 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [3], 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [4], 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [5], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [6] hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarixchi olim Turg'un Fayziyevning temuriy malikalarga bag'ishlangan tadqiqot ishlari e'tiborga molik [7]. Olim Temur va temuriylar davri tarixini, jumladan, temuriy shahzodalar va malikalar haqidagi ma'lumotlarni to'plab, tahlil qilib, ko'plab tarixiy manbalarga tayanib 1995-yilda "Temuriylar shajarasi" kitobini nashr ettirdi [8]. Xarakterli jihati shundaki asarda temuriy malikalar, ularning kelib chiqishi, insoniy

fazilatlari, shajaralari to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Olimning temuriy malikalarga bag'ishlangan yana bir risolasi Sharqning bulbuli deb nom olgan Zebuniso begimga bag'ishlangan. Muallif XVII asrda boburiylar xonadonida tug'ilib voyaga yetgan Zebunisoning hayoti va faoliyati, madaniy merosiga oid ma'lumotlarni fors tilidagi manbalar orqali bayon qiladi.

Izzat Ahmedov tomonidan nashrga tayyorlangan "Dunyo malikalari" to'plamida muallif ko'pgina tarixiy hujjatlar, manbalardan foydalanib, dunyo mamlakatlarining aksariyatida mashhur va tarixiy shaxsga aylangan ayollarning insoniyat tarixiga qo'shgan salmoqli hissalarini, ko'rsatgan xalq qahramonlarining jasoratlari, davlatni qanday boshqarganliklari, oilaparvarligi, insoniy fazilatlarni kengroq yoritishga harakat qilgan. Ushbu to'plamda temuriy malikalardan Saroyimulk xonim, Gavharshod begim, Xonzoda begim, Gulbadan begim, Jahonoro begim, Zebuniso begimlar haqida ulardagi insoniy fazilatlar to'g'risida yozgan. Jumladan, "...Saroyimulkxonim nozik did va farosat bilan o'zgalardan ajralib turadigan, husn-latofat bobida ham benazir ayollardan edi. Saltanat ishlarida o'z maslahatlari bilan qatnashib turar, ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor ila qarab, tolibi ilmlarga homiylik qilar edi", – deb ta'kidlaydi muallif [9].

Boburning eng sevimli farzandlaridan biri Gulbadan begim bo'lgan. U saroyda katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan. Shu bois, Gulbadan begim akasi Xumoyun vafotidan keyin ham uzoq yillar yashab Boburiylar avlodi to'g'risida "Humoyunnoma" asarini yozadi. Ushbu asar oradan bir necha asr o'tsa ham avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Manbalarga qaraganda Gulbadan begim o'z davrining oqila, donishmand ayollaridan biri edi. U "Humoyunnoma" asarida saroy ahlining turmush tarzi, tarixiy asarlarda uchramaydigan Boburshoh xonadonining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to'y va a'za bilan bog'liq udumlar, uy-ro'zg'or asboblari, kiyim-kechak turlari va boshqa jihatlar haqida batafsil bayon qiladi.

"Humoyunnoma"da XVI asrda Bobur ayniqsa, Humoyun saroyidan xotin-qizlar ahvoli va ularning feodal jamiyatda tutgan o'rinlari haqida ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan. Gulbadan begimning yozishicha "begimlar" ayrim hollarda davlatda katta o'rin tutganlar. Masalan, Gulbadan begimning o'zi Humoyun davrida davlat miqyosida diplomatik munosabatlarda ishtirok etgan. Ular shodlik kunlarida mardona kiyimlar kiyishganlar va chavandozlik, tirandozlik kabi o'yinlarda faol qatnashganlar [10].

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda temuriylar davri madaniyati va temuriy malikalar ma'naviy merosiga oid pedagogik, tarixiy, adabiy, etnografik manbalar tahlili usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talaba-qizlarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirishning ta'lim jarayoni bilan auditoriyadan tashqari vaqtda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida ham olib borildi.

60110500 – Boshlang'ch ta'lim yo'nalishi uchun Umumiy pedagogika fan dasturida jami 240 soat: auditoriya 120 (60 seminar / 60 amaliy) va mustaqil ta'lim 120 soat ajratilgan.

"Pedagogika tarixi" moduliga tegishli Sharq Uyg'onish davri (1-va 2-Renesans)da ta'lim-tarbiya rivoji. IX–XII asrlarda Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari. XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning birinchi yarmigacha ta'lim-tarbiya masalalari kabi mavularni o'tish jarayonida talaba-qizlarga temuriy malikalar ma'naviy merosini o'rgatishda yetarlicha imkoniyat borligi ma'lum bo'ldi.

XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning birinchi yarmigacha ta'lim-tarbiya masalalari mavzusiga doir ba'zi ma'lumotlarni ma'ruza darslarida ham aytib o'tish imkoniyati bor. Amaliy va seminar darslarida temuriy malikalar ma'naviy merosi haqida yetarlicha ma'lumotlarniyetkazish imkoniyati mavjud. Quyida talaba-qizlarga temuriy malikalar ma'naviy merosini o'rgatishning metod va vositalarni ishlab chiqildi.

“Malikalar va imkoniyatlar” texnikasi

Talaba-qizlardan dars jarayonida “Malikalar va imkoniyatlar” texnikasi asosida dars-treninglar tashkil etildi. Bunda har bir talaba hozirda o'ziga yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlarni baholashlari lozim edi.

Bu texnikaning afzallik tomonlari shundaki, biz doimo shahzoda va malikalarga oson, hamma imkoniyatlarga ega deb hisoblanilsa-da, ular ham doimo havas qilarli darajada yashay olishmagan. Masalan, Mo'min mirzo (Husayn boyqaroning nabirasi) kuchli aql-zakovatga ega shazoda arziyas xatoliknng qurboni bo'lgan. Shoira Nodirabegim dushmanlari tomonidan qilich bilan o'ldirilgan.

“Malikalar va imkoniyatlar” texnikasi suhbat, savol-javob, so'rovnoma tarzida amalga oshirildi. Suhbat jarayonida quyidagi savollardan foydalanildi:

№	Temuriy malikalarning imkoniyat darajalari	Malikalar uchun cheklangan holatlar	Talaba-qizlarga yaratilgan shart-sharoitlar	Talabalar uchun belgilangan tartib-qoidalar
1.	Iqtisodiy ta'minlanganlik	Doimo nazoratda turishlari		
2.	Kutubxonadan foydalanish imtiyozi	Maliklarga xos odob qoidalarini o'rganishi va amal qilishi		
3.	Kamon otish, qilichbozlik mashqlari bilan shug'ullanish uchun shart-sharoit	Harbiy mashq turlaridan ma'lum turlaridagina foydalanish sharti		
4.	Kuchli muhofaza qilinganlik, yetarli xavfsizlikda bo'lishligi	Ma'lum toifadagi kishilar bilan suhbatlashish umkoniyati		
5.	Sayr-sayohat uchun imkoniyat-imtiyoz mavjudligi	Shahar va atrof tevarakda erkin sayr qilishning cheklanganligi		
6.	O'zga yurt malikalari va shahzodalarning e'tirofi va sovg'alari	O'zlari kabi aslzoda va shahzodalar bilan turmush qurish sharti		

“Malikalar va imkoniyatlar” texnikasini qo'llash natijasida talaba-qizlarda o'qish jarayonida juda ko'p imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi.

“Teatr-sahna” texnikasi

Talabalarga dars jarayonida ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini yuksaltirishga o'rgatish borasida bir qator qiziqarli mashg'ulorlar, terninglar, sahna ko'rinishlari tashkil etish mumkin.

“Teatr-sahna” texnikasi uch bosqichdan iborat bo'ladi.

Birinchi bosqich – esse yozish. Dars mobaynida talabalarga “Men hurmat qiladigan temuriy malika” mavzusida esse yozdirish mumkin. Talabalar yozgan esselarini o‘qib berishlari, o‘z fikrlarini, munosabatlarini bayon qilishlari mumkin. Suhbat jarayonida ulardan nima sababdan shu malikani tanlaganligi so‘ralganda, talabaning aytgan javoblari tahlildan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ikkinchi bosqichda eng yaxshi yozilgan esselar sahna ko‘rinishi-senariy holatiga keltiriladi. Bunday kichik ko‘rinishli senariylarda bir nechta obraz, voqea joyi, vaziyat aniqlashtirilib olinadi.

Uchinchi bosqichda tayyor senariy talabalar tomonidan ijro etiladi. Talabalarning temuriy malikalar hayot tarzi, his-tuyg‘ulari, boshdan kechirgan vaziyatlari borasidagi kechinmalarni talabalar namoyish etib berishadi. Bu jarayon talaba-qizlarning temuriy malikalarga xos fazilatlar, qadriyatlar, ijobiy xislatlarni o‘zlariga ‘yuqtirib olish, shu fazilatlar asosida dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Esse uchun namuna:

“Men Shoh Jahonning go‘zal rafiqasi Arjumand begim haqida juda ko‘p rivoyatlar eshitganman. Go‘zal malika nafaqat o‘zining chiroyi, bilimdonligi, aqliligi, mehriligi bilan nafaqat Shoh Jahonning, balki butun xalqining mehr-oqibatini qozonadi.

Shu sabab ham Arjumand begim vafotidan so‘ng butun xalqi qattiq qayg‘uga tushadi. Shoh Jahon ham qayg‘uga tushadi. Hatto umrining oxirigacha boshqa turmush qurmaydi. Bu malikaga nisbatan yuksak mehr va sadoqatning namunasi edi”.

Senariy uchun namuna:

Doyachi ayol Shoh jahonning oldiga keladi.

Doyachi ayol: Shohim suyunchi bering, farzandli bo‘ldingiz.

Shoh Jahon: Aloohga shukrlar bo‘lsin!

Doyachi ayol: Biroq malikamizning ahvoli og‘irroq ko‘rinadi.

Shoh Jahon (ichkari kiradi): Arjumand begim ne hol bo‘ldi?

Arjuman begim: Men dan xovoturlanmang, ancha tuzukroqman. Menga biror hol bo‘lsa, farzandlarimizni asrang. Ularga onasizlik og‘rligini ko‘rsatmang. Mendan rozi va rizo bo‘ling...

Shoh Jahon: Nega bunday so‘zlayapsiz, nechun meni tashlab ketmoqdasiz?

Arjuman begim: Bu dunyoga kelgan inson borki, bir kun ketadi. Biz Allohning taqdiriga qarshi borolamizmi. Axir Alloh barchasini bilguvchi-ku... Lekin ne sababdin farzandlarimiz onasiz qoldirilayotibdi... bilolmayapman... Farzandlarimizga men uchun ham mehr ko‘rsatishga so‘z bering...

Shoh Jahon: Bunday qilmang malkam, Sizning vafotingiz mening ham vafotim bo‘ladi... Bu dunyoda men uchun yashamoqdan ma‘no qolmaydi.

Talabalar senariyni sahnalashtirib auditoriyaga qo‘yib berishgandan so‘ng, guruhda tahlil qilinadi. Har bir talaba o‘z munosabatini bildiradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ta‘lim jarayonida pedagogika oliy ta‘lim muassasalari talaba-qizlarida ma‘naviy axloqiy qadriyatlarni takomillashtirishning nazariy asoslari va metodikalari, ularning huquqiy madaniyati, ma‘naviy-axloqiy madaniyati, temuriy malikalar ma‘naviy merosini o‘rganish imkoniyatlari masalalari tahlil etildi.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalari talaba-qizlarida ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirishning faqat ta‘lim jarayonidagina emas, auditoriyadan tashqari vaqtda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida ham olib borildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ularni konseptuallik, tizimlilik, majmuiylik, uzviylik, uzluksizlik kabi umumiy zanjirda o‘zaro aloqada olib borish muhim va zarur.

Temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida talaba-qizlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirish ham kafolatlangan samaradorlik bera oladi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – QHMMB, 03/20/637/1313-son, 24.09.2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi 406-sonli Qonuni // Ma'rifat gazetasi. 2016- yil 17- sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 06/22/60/0082-son, 29.01.2022 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi 2019-yil 9-oktabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori // Xalq so'zi 2018-yil 15-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli Qarori // Xalq so'zi, 2019 yil 31-dekabr.
7. Fayziyev T. Temuriy malikalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 40 b.
8. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – Toshkent: Info kapital books nashriyoti, 2020. – 368 b.
9. Ahmedov I. Dunyo malikalari. –Toshkent: Zarqalam nashriyoti, 2005. –140 b.
10. Gulbadan begim. Humoyunnoma. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2016. – 60 b.
11. Tursunova M. Madrasa barpo etgan malikalar. – Toshkent: Zilol buloq nashriyoti, 2019. – 108 b.